

JAHON ADABIYOTI

UO‘K(UDC, УДК): 82.091

YASHAR KAMOLNING “INJA MAMAD” ROMANINING JAHON MIQYOSIDA O‘RGANILISHI XUSUSIDA²³**Shodmonova Dilfuza Akmalovna***Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**tayanch doktranti**Toshkent, O‘zbekiston**E-mail: dilfuzashodmonova71@gmail.com**ORCID ID:0009-0005-2234-8029*

ANNOTATSIYA

KALIT SO‘ZLAR

Ushbu maqolada taniqli turk yozuvchisi Yashar Kamol ijodining boy badiiy merosi, uning jahon adabiyotidagi o‘rni va ahamiyati atroflicha yoritiladi. Xususan, adibni dunyoga tanitgan “Inja Mamad” romanining yaratilish tarixi, asarning badiiy-estetik xususiyatlari, xalq og‘zaki ijodi bilan uzviy bog‘liqligi hamda unda aks etgan ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar tahlil qilinadi. Maqolada romaning turli davrlarda turli tillarga tarjima qilinishi, tarjimonlar faoliyati, asarning bir nechta nashrlari va ularning xususiyatlari haqida batafsil ma’lumot beriladi. Shuningdek, “Inja Mamad”ning yozuvchi ijodidagi o‘ziga xos o‘rni, turk adabiyotini jahon miqyosida targ‘ib etishdagi roli, tarjimalarning xalqaro adabiyotshunoslikdagi qabul qilinishi va baholanishi ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Tilning ifodaviyligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimasida ham muayyan badiiy-ijodiy masalalarini yechishga to‘g‘ri keladi. Bu tarjimondan adabiy mahoratni talab qildi. Mazkur maqola yosh mutaxassislar, izlanuvchilar va tarjimashunoslik bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar uchun Yashar Kamol ijodining o‘rganilishi, uning asarlari tarjimalarining erishgan yutuqlari hamda xalqaro maydondagi ahamiyatini tushunishda muhim nazariy-amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tarjima, jahon adabiyoti, adabiy mahorat, bestseller, badiiy asar, jahon adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi.

Received: November 21, 2025

Accepted: December 2, 2025

Available online: February 25, 2026

²³ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Shodmonova D. Yashar Kamolning “Inja Mamad” romanining jahon miqyosida o‘rganilishi xususida. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 1(9) — B. 334-346.

ON THE GLOBAL STUDY OF YASAR KAMAL'S NOVEL "MEMED, MY HAWK"

Shadmanova Dilduza Akmalovna

doctoral student of

Tashkent State University of Oriental Studies,

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: dilfuzashodmonova71@gmail.com

ORCID ID:0009-0005-2234-8029

ABSTRACT

This article comprehensively examines the rich artistic legacy of the renowned Turkish writer Yasar Kemal, his place and significance in world literature. Specifically, it analyzes the creation history of the novel "Memed, My Hawk" which introduced the author to the world, the artistic and aesthetic features of the work, its intrinsic connection with folklore, and the socio-political ideas reflected in it. The article provides detailed information about the novel's translations into various languages across different periods, the work of translators, multiple editions of the book, and their characteristics. Furthermore, it scientifically analyzes the unique position of "Memed, My Hawk" in the writer's oeuvre, its role in promoting Turkish literature on a global scale, and the reception and evaluation of its translations in international literary studies. In translating socio-political literature, which is closely tied to the expressiveness of language, it is necessary to address certain artistic and creative challenges. This demanded literary skill from the translator. This article serves as an important theoretical and practical resource for young specialists, researchers, and scholars engaged in translation studies, aiding in understanding the study of Yasar Kemal's work, the achievements of his translations, and their significance in the international arena.

KEY WORDS

Translation, world literature, literary mastery, bestseller, literary work, world literature, folklore.

**ОБ ИЗУЧЕНИИ РОМАНА ЯШАРА КЕМАЛЯ
“ТОЩИЙ МЕМЕД” В МИРОВОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ****Шадманова Дилфуза Акмаловна***Ташкентский государственный университет востоковедения**докторант,**Ташкент, Узбекистан**E-mail: dilfuzashodmonova71@gmail.com**ORCID ID:0009-0005-2234-8029***АННОТАЦИЯ****КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

В данной статье подробно освещается богатое творческое наследие известного турецкого писателя Яшара Кемаля, его место и значение в мировой литературе. В частности, анализируется история создания романа «Тощий Мемед», который принес писателю всемирную славу, художественно-эстетические особенности произведения, его неразрывная связь с устным народным творчеством, а также отраженные в нем социально-политические идеи. В статье подробно рассматриваются переводы романа на различные языки, осуществленные в разные периоды, и деятельность переводчиков, анализируются особенности различных изданий этого произведения. Также с научной точки зрения определяются особое место романа «Тощий Мемед» в творчестве писателя, его роль в популяризации турецкой литературы в мировом масштабе, восприятие и оценка переводов в международном литературоведении. При переводе литературы на общественно-политические темы приходится решать определенные художественно-творческие задачи, тесно связанные с сохранением и передачей выразительности языка, что требует от переводчика высокого литературного мастерства. Данная статья служит важным теоретическим и практическим источником для молодых специалистов, исследователей и ученых, занимающихся переводоведением, способствующим пониманию научно-практической значимости результатов изучения творчества Яшара Кемаля, достижений в области переводов его произведений и их места на международной арене.

Перевод, мировая литература, литературное мастерство, бестселлер, художественная литература.

KIRISH

Ma'lumki har qanday tarjima muayyan darajada ijodiy ish hisoblanadi. Badiiy asarlar tarjimasi esa alohida yondashuvni talab etishi, mahorat va san'atkorlikni taqazo qilishi jihatidan san'at iqlimidir. Bu masalani o'zbek olimi G'. Salomov shunday asoslaydi: "Tarjima jarayoning mohiyatini asl nusxada aks etgan shakl bilan mazmuning birligini, yaxlitligini saqlash uchun bo'lak tildan muqobil vositalar qidirib topishdan iborat. Bundan tashqari, asl nusxa mazmunini boshqa tilda berishning mavjud bir nechta imkoniyatlari orasida eng muqobil va muvofiq variantini tanlash ham adekvat tarjimaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ana shu muqobil til vositalarini qidirib topish va muvofiq variant tanlash ijodiy xarakterga ega bo'lib, tarjima qiluvchi kishi, ya'ni tarjimondan ongli mehnatni talab etadi. Tilning ifodaviyligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimasida ham muayyan badiiy-ijodiy masalalarini yechishga to'g'ri keladi. Bu tarjimadan adabiy mahoratni talab qildi. Bunday tarjima san'at jumlasiga kiradi" (АМИНОВА, Л., 2003, 21).

Haqiqiy so'z ustasi, o'z ijodini Onado'lu xalq og'zaki ijodi na'munalari bilan omixta asarlar yozish bilan boshlagan Yashar Kamol turk tilining badiiy ifoda qudrati, nafosati, xalq og'zaki ijodining yagona qahramoni bo'lgan turk xalqining boy madaniyatidan ilhomlanadi. Yevropada Yashar Kamolning ushbu asarlaridan Shahrizoda hikoyalari, Tolstoy romanlari kabi keng miqyosli, Dikkens romanlari kabi jonli ekani, kitobning go'zallikka boy nazm uslubi, afsona tuyg'usiga tayanishi ta'kidlanadi (Хамидов, Х., 2022,5). Adibning "Inja Mamad", "Tayanch ustuni", "Osmon olis, yer qattiq", "Og'chasoz og'alari", "Ilonni o'ldirsalar", "Tunuka" "Og'ritog'i nolasi", "Temirchilar bozori" singari asarlarida jahon adabiyotida ilgari surilgan insonparvarlik g'oyalari ulug'lanadi, Sharq va G'arb adabiyotiga xos ilg'or jihatlar yorqin aks ettiriladi

Taniqli turk yozuvchisi Yashar Kamolni dunyo adabiyotiga tanitgan asari bu "Inja Mamad" romanidir. Ushbu roman birinchi marta 1953 va 1954-yillarda "Respublika" gazetasida nashr etilgan. Keyinchalik Yashar Kamol romanning

davomi sifatida yana uchta roman yozdi. Asar hozirgi shaklini olishi uchun jami 32 yil sarflangan.

ASOSIY QISM

Yashar Kamolning birinchi romani “Inja Mamad” ni yozilish va dunyo tillariga tarjima qilinishi tarixini yozuvchining o‘zi quyidagicha izohlaydi:

“Men 1946-47 yillarda romanlar yozishni sinab ko‘ra boshladim. Ular orasida Inja Mamad ham bor edi. Men yozishni boshladim. Yillar davomida o‘yladim, xayolan romanni yoddan bilardim. O‘sha yili juda qattiq qish bo‘lgandi va qo‘limda qo‘lqop bilan “Inja Mamad” ni uch oyda yozib tugatdim va 1956-yilda nashr etildi. “Eng yaxshi roman” mukofotini oldi. 1957 yilda Sovet Ittifoqi va Bolgariyada nashr etildi. Uning nashr etilishini Nozim Hikmat ta‘minladi. 1961 yilda Angliyada nashr etilgan “Inja Mamad” uzoq vaqt davomida eng ko‘p sotilgan kitoblar ro‘yxatida birinchi o‘rinni egalladi. Keyinchalik Skandinaviyada, undan keyin Fransiyada, keyin Amerikada mashhurlikka erishdi” (Yashar Kemal., 2020, 70-71).

“Inja Mamad” – 40 dan ortiq dunyo tillarga tarjima qilingan “Inja Mamad” ning qayg‘uli va dramatik hikoyasi ko‘plab o‘quvchilarning qalbini zabt etishga muvaffaq bo‘ldi va jahon adabiyoti durdonalari ro‘yxatiga o‘rin egalladi (Yashar Kamol., 2021,12). Dastlab nashr etilgandayoq barchaning e‘tiborini tortgan ushbu roman bugungi kunda ham eng ko‘p sotilganlar kitoblardan biridir. “Inja Mamad” romani jami 4 jildidan iborat va unda jumhuriyat davrining ilk yillarida sodir bo‘lgan voqealar, roman qahramoning qishloq xo‘jayini tomonidan ko‘rgan ta‘qiblari orqali qishloq odamlarining umumiy ahvoli tasvirlangan (Yashar Kamol., 2021, 8). Roman “Turk adabiyotining 100 ta eng yaxshi romani” ro‘yxatida 1-o‘rinni egallagan. Ushbu turkumning birinchi jildi 1955 yilda, Yashar Kamol yozuvchilik faoliyatini boshlagan paytda nashr etilgan hamda katta shuhrat keltirgan. U butun umri davomida guvohi bo‘lgan voqealarni bu asarda yoritib bergan. Ushbu romandagi hodisalar yozuvchi o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan voqealardir. Bu asar sayohatnoma janri ham qo‘llangan birinchi nasriy asardir. Shu paytgacha doston, roman qahramonlari

avval ogʻzaki usulda aytilib, keyinchalik qogʻozga tushirilgan. “Inja Mamad” esa ilk bor nasrdan ogʻaki nutqqa koʻchgan qahramondir.

Yashar Kamol oʻzi yashagan ijtimoiy tuzumni inkor etmaydi, qoralamaydi. Lekin u ayrim amaldorlar, mulkdorlar feʼl-atvorida, hayot tarzida koʻzga tashlanadigan adolatsizlik, zoʻravonlik, manfaatparastlik singari gʻayriinsoniy illatlarni fosh etish orqali oʻzining oddiy kishilar tarafdori ekanini bildiradi. Adib asarlarida boylik orttirishga mukkasidan ketgan, birovlariga nohaq zulm oʻtkazadiganlar bilan bechorahol, kambagʻal odamlar oʻrtasidagi murosasiz kurashni koʻrsatish asosiy oʻrin tutadi. Yashar Kamol asarlarining oʻziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, ularda qaroqchilar, ularning koʻrmish-kechirmishlari haqida soʻz yuritiladi.

“Inja Mamad” nafaqat Turkiyada, balki xalqaro miqyosda ham shuhrat qozongan. 1957-yilda bolgar tiliga tarjima qilingan roman, ikki yil oʻtib 1959-yilda rus tiliga Nozim Hikmat tomonidan tarjima qilingan. Lekin romanning bizgacha yetib kelgan ruscha tarjimasi tarjimonlari G.Aleksandrov va M.Kerimovlar ekanligini koʻrishimiz mumkin. Tadqiqot davomida olingan koʻplab maʼlumotlar romanning ilk tarjimoni Nozim Hikmat ekanligini koʻrsatadi. Yuqorida koʻrib chiqilganida ham yozuvchining oʻzi ushbu tarjimada, nashrda Nozim Hikmatning oʻrnini alohida taʼkidlab oʻtgan. Yashar Kamolning “Inja Mamad” asari ruschaga Nozim Hikmat tomonidan tarjima qilingan. Dastlab bolgar tiliga tarjima qilingan asarni, Nozim Hikmat ruschaga tarjima qilishni boshlagan. Nozim Hikmat Yashar Kamol bilan ikki marotaba uchrashgan va bu uchrashuv u uchun juda hayajonli boʻlganini oʻz tarjimayi holida ham yozib oʻtgan. Keyinchalik romanni G. Aleksandrov va M. Kerimovlar qayta tarjima qilishgani, nashr ettirishgani sababli goʻyoki romanning ilk rus tarjimonlari ham ular deb nom qoldirishgan” (Naci, Fethi., 1998, 12), – deb yozadi adabiyotshunos Metin Jelal oʻzining “Nozim Hikmatning “Inja Mamad” tarjimasi” nomli maqolasida.

Keyinchalik 1961-yilda Eduard Roditi va Thilda Kemal uni ingliz tiliga, Guzin Dino esa fransuz tiliga tarjima qilgan. “Inja Mamad” Angliya, AQSh,

Fransiya va Italiyada nashr ettirilgan. 1957-yilda “Inja Mamad” romani Sovet Ittifoqi va Bolgariyada Nozim Hikmat ko‘magida nashr etiladi. 1961-yilda Angliyada nashr etilgan roman uzoq vaqt davomida “bestseller”lar ro‘yxatida birinchi o‘rinni egallagan. Juda ko‘plab Yevropa davlatlarida ham tarjima qilinib, qayta qayta nashr qilinganligi, asarning shuhrat qozonganligini bildiradi.

Adibning romanlari va bir hikoyalari to‘plami fors tiliga tarjima qilingan. Semin Bahcheban tomonidan 1974-yilda tarjima qilingan “Inja Mamad” romani Yashar Kamolning fors tiliga tarjima qilingan birinchi romanidir. “Inja Mamad” bilan birga yozuvchining jami o‘n beshta romani fors tiliga tarjima qilingan. Yashar Kamolning turk tilida nashr etilgan qirq to‘rtta asari ichida eng ko‘p tarjima qilingani “Inja Mamad” romanidir. Romanning ikkinchi va uchinchi jildlari 1987 va 1989 yillarda Irech Nobahat tomonidan tayyorlangan va “Neshr-i Ney” nashriyoti tomonidan nashr etilgan. Keyinchalik asarning birinchi va ikkinchi jildlari 2003-yilda Husrav Mehrzod tomonidan qayta tarjima qilinib, “Semir” nashriyotida bir jild holida nashr etilgan. Turli tarjimonlar va turli nashriyotlar tomonidan jami to‘qqiz marta nashr etilgan.

“Inja Mamad” romanining 1-jildini o‘zbek tiliga 1968-yilda Miad Hakimov tarjima qilgan. Bu ham o‘zbek kitobxonlarida orasida tez orada mashhurlikka erishdi. “Bu yerda roman mazmunini aytib berishga hojat yo‘q. Lekin shu narsani alohida ta’kidlab o‘tish zarurdirki, voqea uchun avtor oddiy bir qishloqni tanlagan... Muallifning asosiy xizmati shundaki, u qishloqda mavjud tartib-qoidalarga, zolimlarga qarshi norozilik kayfiyati qanday o‘rib borishini, kechagina qo‘ydek yuvosh bo‘lib yurgan dehqonlar, zulmga, qashshoqlik va nochorlik uqubatlariga chiday olmay, nohaqlikka qarshi qanday bosh ko‘tarishini zo‘r badiiy kuch bilan ko‘rsatib bergan”, – deb yozadi tarjimon asar yakunida. Roman nasrda yozilgan bo‘lsa-da, nazm kabi yengil o‘qilishi, voqealar rivojining o‘tkirliги, tasvirdagi bo‘yoqlarning quyuqligi, ijobiy qahramonlar portretini chizishdagi shoirona mayinlik ham uning yutug‘idir. Asarning o‘zbek tiliga qilingan tarjimasi ravon o‘qilishi, garchi aslyatda mavjud bo‘lmasa-da, badiiy bo‘yoqlarning naqadar ko‘p

qo‘llanganligi bilan kitobxonni o‘ziga tortadi. Yashar Kamol asliyatda frazeologik birliklardan keng ko‘lamda foydalanmagan, faqat zarur o‘rinlarda ibora va tasviriy ifodalarni qo‘llagan. Tarjimada esa badiiylik o‘ziga tortuvchi xislatlaridan biri bo‘la olgan.

“Inja Mamad” romani ko‘p jihatdan realistik romandir. Muallif – hikoyachi, asarda o‘z boshidan kechirganlarini yozganligini juda ko‘p ta’kidlab o‘tgan.

Yashar Kamol roman va qissalarida ham ezgulik, halollik, inson qadri-qimmatini qadrlanadi. Ayni chog‘da ularda yovuzlik, shafqatsizlik, zo‘ravonlik qoralanadi. Yozuvchi gumanist ijodkor sifatida kamsitilgan, xo‘rlangan, ezilganlarni yoqlab chiqdi, insonning insonga zulm qilishi eng katta jinoyat, kechirilmas gunoh ekanligini ochiq-oshkora ta’kidladi. Ana shunday insonparvarlik g‘oyalari adib asarlarining jahon miqyosida keng shuhrat qozonishiga sabab bo‘lgan.

Bu ijodkor o‘z qahramonlari ichki va tashqi dunyosini ta’sirchan, ishonarli ko‘rsatishi uchun, avvalo, hayot hodisalarini aniq bilishi, ularni chuqur his qilishi lozimligining yana bir isboti bo‘la oladi. Yashar Kamol badiiy g‘oyani aniq ifodalash uchun asarlari syujetini pishiq, puxta qurishga intiladi, voqealarni bir-biri bilan uzviy bog‘lashga harakat qiladi. Shu tarzda syujet tarkibiga kiruvchi barcha unsurlar o‘rtasida mantiqiy uyg‘unlik yaratadi.

Turk adabiyotshunosi Fathi Najining fikricha, Yashar Kamol turli toifadagi qahramonlarning hayot tarzi, maqsad, intilishlarini ta’sirchan, ishonarli tasvirlashi, asarlari syujeti dramatik to‘qnashuvlarga boyligi bilan boshqa turk adiblaridan ajralib turadi. Bu kabi ilmiy e’tiroflar Yashar Kamol asarlari syujeti hayotning o‘zidan olingan tayyor voqealar ko‘chirmasi emasligi, ular adib o‘y-xayoli, tafakkuri mahsuli, ijodiy izlanishlari samarasi ekanligini bildiradi. Yashar Kamol syujetni tayyor “ko‘priklar” asosida yaratmaydi. U voqelikni chuqur ijodiy ishlash asosida qiziqarli badiiy syujet vujudga keltiradi.

Tarjimon qaysi tarixiy davrga xos asarni tarjima qilayotgan bo‘lsa, o‘sha davr tarixi, madaniyati, mavjud ijtimoiy sharoit, voqea-hodisalarning aniq nomini

yaxshi bilishi, buning uchun esa yuksak ilmiy saviyaga ega bo'lishi lozim. Bunda so'zning ma'nosi, gap mazmunini teran anglash, muallif uslubiga xos nozik jihatlar, obrazlilikni tarjimada bera olish qobiliyati ijodkor uchun birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Yashar Kamol asarlari tasvirning juda keng ko'lamda, yuksak iste'dod bilan yoritilganligi jihatidan boshqa asarlardan ajralib turadi. Tabiat tasvirlari, voqealar izchilligi, ularning barchasiga yozuvchi o'zi guvohi bo'lganligi sababli roman tillardan tillarga o'tib keng ommaga yoyilib ulgurdi.

Dengiz va tog'lar turk adiblari, jumladan, Yashar Kamol asarlarida peyzajning asosiy obyekti sifatida keladi. Ularning qahramonlari dengiz va tog'lar bilan tutashib ketgan zaminda yashaydi. Yashar Kamol asarlarida dengiz va tog'lar manzarasi muhim o'rin tutishi, avvalo, turk zaminining o'ziga xos tabiatidan kelib chiqqan. "Inja Mamad" romani boshlanishi ham peyzaj tasviri bilan boshlangan. Quyida asarning boshlanishini asliyat va uning rus va o'zbek tillaridagi tarjimasi misolida qiyoslaymiz:

"“Toros dağlarının etekleri ta Akdeniz'den başlar. Kıyıları döven ak köpüklerden sonra doruklara doğru yavaş yavaş yükselir. Akdeniz'in üstünde daima, top top ak bulutlar salınır. Kıyılar dümdüz, cilalanmış gibi düz killi topraklardır. Killi toprak et gibidir. Bu kıyılar saatlerce içe kadar deniz kokar, tuz kokar. Tuz keskindir. Düz, killi, sürülmüş topraklardan sonra Çukurova'nın bükleri başlar. Örülmüşçesine sık çalılar, kamışlar, böğürtlenler, yaban asmaları, sazlarla kaplı, koyu yeşil, ucu bucağı belirsiz alanlardır bunlar. Karanlık bir ormandan daha yabani, daha karanlık.” (Yaşar Kemal. İnce Memed 1., 2020,3)

Yashar Kamol asarlarini o'qiganimizda uning barcha asarlarida tabiat bosh qahramon sifatida ishtirok etishiga guvoh bo'lamiz. Yozuvchi tabiat va kishilar bir-biriga bog'liqligini, ular o'rtasida uzviylik borligini takidlaydi.

"Tavr tog'ining etagi naq O'rtayer dengizidan boshlanadi. Tog' etaklari oppoq ko'piklar mavj urib yotgan sohildan tikkasiga ko'tarilib, cho'qqilar tomon balandlab ketaveradi. Dengiz uzra pag'a-pag'a oq bulut suzib yuradi. Sohil kaftdek

tep-tekis, huddi taroshlab qo'yganga o'xshaydi, undan dengiz hidi – sho'rtan tuz hidi anqib turadi. Bu tomonlarining yeri soz, hamma yog'i ekinzor. Chuqur va chakalakzorni buta va qamish bosib ketgan, har qadamda maymunjon, yovvoyi uzum va qo'g'alar uchraydi: ichi shu qadar qorong'uki, hatto qalin o'rmondan ham qorong'iroqdir" (Яшар Камол. Инжа Мамад 1., 1968,5).

Tarjimon tasvirni ishonchli berish bilan birga jumlada qo'llanilgan yashirin o'xshatish va jonlantirish kabi nozik badiiy vositalarni to'la ilg'agan holda qayta yaratishga muvaffaq bo'lgan. Asardagi manzaralar huddi mahoratli musavvir tomonidan chizilganday ko'rinadi. Tarjimon ham asliyatdagi bo'yoqdorligini, o'xshatishlarni to'laligicha aks ettira olgan. Tarjimon tomonidan qo'llangan *"mavj urib yotgan sohildan tikkasiga ko'tarilib, cho'qqilar tomon balandlab ketaveradi"* jumalari o'quvchini tabiatning tirik ekanligi, unda qandaydir sehr mavjudligiga ishontira oladi.

"Склоны Тавра поднимаются от самого Средиземного моря. Берега его, о которые разбивается белая пена, постепенно взбираются вверх. Над морем всегда стоят белые облака. Побережье — ровное-ровное, словно утрамбованная глина. Часами можно идти, удаляясь от берега, и запах моря будет сопровождать тебя. Пахнет солью. Запах этот резок. За ровными, глинистыми, распаханными землями начинается Чукурова. Это темно-зеленая, бескрайняя равнина, покрытая густым кустарником, камышом, ежевикой, диким виноградом и тростником. Здесь темно; темнее, чем в лесу" (Яшар Кемаль. Тоший Мемед., 1959,4).

Ruscha tarjimada esa, tarjimon badiiy bo'yoqlardan foydalanib o'g'irgan. Ba'zi o'rinlarda hatto asliyatda mavjud bo'lmagan badiiy o'xshatishlar tarjimada asar ta'sirchanligini oshirgan. Masalan, asliyatdagi *"killitoprak"* birikmasi tuproqning turi sifatida ishlatiladi va ushbu birikma ruscha tarjimada *"утрамбованная глина"*, o'zbekcha tarjimada esa, *"tarashlab qo'yganga o'xshaydi"* juda mos ekvivalent topib tarjima qilingan. Badiiy asar badiiy bo'yoqlari bilan boyigandagina asl maqsadiga erishgan bo'ladi. Shuni inobatga oladigan

bo'lsak, tarjimalardagi o'xshatishlar, garchi asliyatda uchramasa ham asar badiiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Yashar Kamol asarlarining dunyo tillariga tarjima qilinishi turk adabiyotining dunyo xalqlari orasida keng targ'ib qilinishini ta'minlab kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, avvalo yuqorida nomlari zikr etilgan ikki yirik asarning o'zbek adabiyoti xazinasining bebaho mulkiga aylanganini e'tirof etgan holda, asarlarning o'zbekcha tarjimalari va ularning milliy o'ziga xosliklari, badiiy xususiyatlarini qayta yaratish masalalari ustida kelajakda jiddiy tarjimashunoslik tadqiqotlari olib borilishi zarurligi, ushbu maqolaning esa bu yo'lda amalga oshirilgan ilk ishlardan hisoblanishini ta'kidlash o'rinli.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlarni tarjima qilish, nashr etilgan tarjimalarni tekshirish bilan bog'liq muammolarni o'rganish masalalari hanuz dolzarbligicha qolayotganini tan olish zarur. Badiiy nasr yoki nazm matnlarida til nafaqat ma'lumotni yetkazib berish, balki uni badiiy jihatidan qayta yaratish, asarning estetik qimmatini tashuvchi vosita ham hisoblanadi. Bundan tashqari badiiy asar begona madaniyat manbai ham sanaladi. Badiiy tarjima bilan shug'ullanadigan tarjimondan nafaqat xorijiy tilni puxta egallashi, balki shu til tarixini, madaniyatini, xalqaro madaniy aloqalarga oid bilimlarni, psixologiya sohasini, xalqlar va dinlar tarixini bilishi ham talab etiladi. Tildan universal vosita va etnik madaniyat sifatida foydalanish mumkin. Lekin madaniyatni tilga oid birliklarda semantika shaklida ko'rsata olish uchun yuqorida sanalgan sohalarda yuqori bilimga ega bo'lish muhimdir. Shuning uchun xorijiy tilni puxta o'rganishda albatta shu tilni professional o'rganish bilan bir qatorda shu tilning metodikasini, madaniyatini, adabiyotini, mamlakatshunosligini, og'zaki va yozma tarjima nazariyasi va amaliyoti fanlarini ham qo'shib o'rgatishga jiddiy ahamiyat berish kerak. Natijada bo'lajak mutaxassis shu xorijiy tilni chet tilida yozilgan manbalardan qabul qila oladigan va baholaydigan darajaga yetishi, tarixiy va madaniy merosga hurmat va e'tibor bilan yondashishi, ma'lumotlarni ijtimoiy va

madaniy nuqtayi nazaridan farqlay olishi, badiiy tarjimani amalga oshirishda mantiqiy ketma-ketliklardan foydalana olishni shakllantirishi, asl matndagi mohiyatni buzmasdan tarjimada to'g'ri ochib bera olishi professional darajaga ko'tariladi. Shunday ekan tarjima maktablarimizni kelajakda munosib o'rnini topishini ta'minlashimiz uchun tarjimonlarni qo'llab-quvvatlashimiz, ham nazariy, ham amaliy bilimlarni puxta egallashlariga shart-sharoitlarni yaratib berishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аминова, Л. Турк ёзувчиси Я. Камол асарларида бадий маҳорат масалалари : автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 2003. – 24 б.
2. Хамидов, Х. Ўзбек қисса ва романлари турк тилида. – Тошкент: EFFECT-D, 2022. – 180 б.
3. Yaşar Kemal. İnce Memed 1. – İstanbul: Yapı Kredi Yayınları, 2020. – 436 s.
4. Яшар Камол. Инжа Мамад 1 / тарж. М. Муҳаммаджонов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1968. – 350 б.
5. Яшар Камол. Севги афсонаси / тарж. М. Муҳаммаджонов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 240 б.
6. Yaşar Kemal'in İnce Memed 60, romanı ise 50 yaşında! // Milliyet gazetesi. – 2007. – 15 Şubat. – Arşiv: 7 Nisan 2014. – Erişim tarihi: 13 Eylül 2017.
7. Celal, Metin. Nazım Hikmet'in İnce Memed çevirisi // Edebiyat Haber. – 2022. – 7 Eylül. – URL: <https://edebiyathaber.net> (Erişim tarihi: 30.01.2026).
8. Naci, Fethi. Yaşar Kemal ile Edebiyat ve Politika // Aydınlık. – 1993. – 1–2 Mayıs. – Arşiv: 4 Mart 2016. – Erişim tarihi: 27 Ağustos 2011.
9. Яшар Кемаль. Тоций Мемед. – Москва: Издательство иностранной литературы, 1959. – 380 с.

REFERENCE

1. Aminova, L. (2003). Turk yozuvchisi Ya. Kamol asarlarida badiiy mahorat masalalari (Author's abstract of PhD dissertation). Tashkent.

2. Celal, M. (2022, September 7). Nazım Hikmet'in İnce Memed çevirisi. Edebiyat Haber. <https://www.edebiyathaber.net/nazim-hikmetin-ince-memed-cevirisi-metin-celal/>
3. Hamidov, K. (2022). O'zbek qissa va romanlari turk tilida. Tashkent: EFFECT-D.
4. Milliyet Gazetesi. (2007, February 15). İnce Memed 60, romanı ise 50 yaşında! (Archived April 7, 2014). Retrieved September 13, 2017.
5. Naci, F. (1993, May 1–2). Yaşar Kemal ile edebiyat ve politika. Aydınlık. (Archived March 4, 2016). Retrieved August 27, 2011.
6. Yashar Kemal. (1959). Toshchiy Memed [Toşçiy Memed] (Russian translation). Moscow: Foreign Literature Publishing House.
7. Yaşar Kemal. (1968). Inja Mamad 1 (Uzbek translation). Tashkent: G'afur G'ulom Publishing House.
8. Yaşar Kemal. (2020). İnce Memed 1. İstanbul: Yapı Kredi Yayınları.
9. Yashar Kamol. (2021). Sevgi afsonasi (Uzbek translation). Tashkent: Yangi Asr Avlodi.